



THE THEORETICAL FOUNDATIONS OF TIMURID STATEHOOD AND POWER STRUCTURES

Askariy Madraimov

PhD, Associate Professor

Tashkent State University of Oriental Studies

askariy_madraimov@tsuos.uz

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: statehood, Timurid state, power, state administration, dynastic power, military administration, suyurgol, patrimonial state, Islamic East, nomadic and sedentary traditions, comparative historical analysis.

Received: 18.08.26

Accepted: 19.08.26

Published: 20.08.26

Abstract: The article studies the specific aspects of statehood and governance in the Timurid state in the 15th-16th centuries. The study of statehood in the medieval Islamic East is based on the need to take into account the political and social conditions of that time. It is shown that the Timurid statehood was formed on the basis of the combination of nomadic Turkic-Mongol military governance traditions with the settled Persian-Islamic governance experience. The views of M. Weber, S.N. Eisenstadt, M.G.S. Hodgson and M.E. Subtelny are analyzed on the example of the Timurid statehood.

The study identifies three main pillars of power in the Timurid state. They are the foundation of the supreme power on the dynastic principle, the important place of military structures in the life of the state and society, and the system of governing territories through herders. The relationship between these forms of government, the relationship between the central government and military emirs and the owners of the suyurgol are revealed. The features of the Timurid statehood are compared with the administrative systems of the Ottoman Empire, the Safavid state and the Golden Horde. At the end of the study, the conclusion was made that when studying the Timurid state, it is necessary to take into account the

**TEMURIYLAR DAVLATCHILIGINING NAZARIY ASOSLARI VA HOKIMIYAT
TUZILMALARI****Askariy Madraimov***PhD, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti*askariy_madraimov@tsuos.uz*Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: davlatchilik, Temuriylar davlati, hokimiyat, davlat boshqaruvi, sulolaviy hokimiyat, harbiy boshqaruv, suyurgʻol, patrimonial davlat, islom Sharqi, koʻchmanchi va oʻtroq anʼanalar, qiyosiy-tarixiy tahlil.

Annotatsiya: Maqolada XV-XVI asrlarda Temuriylar davlatida davlatchilik va hokimiyat boshqaruvining oʻziga xos jihatlari oʻrganilgan. Oʻrta asrlar islom Sharqidagi davlat boshqaruvini oʻrganishda oʻsha davrning siyosiy va ijtimoiy sharoitlarini hisobga olish zarurligi asoslangan. Temuriylar davlatchiligi koʻchmanchi turkiy-moʻgʻul harbiy boshqaruv anʼanalari bilan oʻtroq fors-islom boshqaruv tajribasining uygʻunlashuvi asosida shakllangani koʻrsatib berilgan. M. Veber, S.N. Eyzenshtadt, M.G.S. Xodjson va M.E. Subtelni qarashlari Temuriylar davlatchiligi misolida tahlil qilingan. Tadqiqotda Temuriylar davlatidagi hokimiyatning uchta asosiy tayanchi ajratilgan. Ular oliy hokimiyatning sulolaviy tamoyilga asoslanishi, davlat va jamiyat hayotida harbiy tuzilmalarning muhim oʻrin tutishi hamda hududlarni suyurgʻol egalari orqali boshqarish tizimidan iborat. Ushbu boshqaruv shakllari oʻrtasidagi bogʻliqlik, markaziy hokimiyat bilan harbiy amirlar va suyurgʻol egalari oʻrtasidagi munosabatlar ochib berilgan. Temuriylar davlatchiligining xususiyatlari Usmoniylar imperiyasi, Safaviylar davlati va Oltin Oʻrda boshqaruv tizimi bilan qiyoslangan. Tadqiqot yakunida Temuriylar davlatini oʻrganishda koʻchmanchi va oʻtroq davlatchilik anʼanalarining oʻzaro uygʻunligini hisobga olish zarurligi haqidagi xulosaga kelingan.

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ГОСУДАРСТВЕННОСТИ ТИМУРИДОВ И
СТРУКТУРЫ ВЛАСТИ**

Аскарый Мадраимов*PhD, доцент Ташкентского государственного
университета востоковедения*askariy_madraimov@tsuos.uz*Ташкент Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые	слова:	Аннотация:	В	статье
государственность, государство, власть, управление, династическая власть, военное управление, суйургол, патримониальное государство, исламский Восток, кочевые и оседлые традиции, сравнительный исторический анализ.	тимуридское государственное управление, военное управление, суйургол, патримониальное государство, исламский Восток, кочевые и оседлые традиции, сравнительный исторический анализ.	рассматриваются специфические аспекты государственности и управления в государстве Тимуридов в XV-XVI веках. Изучение государственности в средневековом исламском Востоке основано на необходимости учета политических и социальных условий того времени. Показано, что государственность Тимуридов формировалась на основе сочетания кочевых тюрко-монгольских традиций военного управления с оседлым персидско-исламским опытом управления. На примере государственности Тимуридов анализируются взгляды М. Вебера, С.Н. Эйзенштадта, М.Г.С. Ходжсона и М.Е. Субтельни.		
		В исследовании выделены три основных столпа власти в государстве Тимуридов: основание верховной власти на династическом принципе, важное место военных структур в жизни государства и общества, а также система управления территориями через скотоводов. Раскрываются взаимосвязи между этими формами правления, отношения между центральным правительством и военными эмирами, а также владельцами суйурголов. В работе сравниваются особенности тимуридской государственности с административными системами Османской империи, Сефевидского государства и Золотой Орды. По итогам исследования сделан вывод о необходимости учета гармонии традиций кочевого и оседлого государственности при изучении тимуридского государства.		

Kirish. O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda kechgan siyosiy jarayonlar, davlatlarning shakllanishi va boshqaruv tartibini o'rganish tarix fanining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda mavjud bo'lgan davlatlar o'ziga xos siyosiy, harbiy va ma'muriy

boshqaruv tajribasiga ega edi. Ularning boshqaruv tartibi hukmdor hokimiyati, sulola vakillari, harbiy amirlar, mahalliy boshqaruvchilar va boshqa kuchlar o'rtasidagi munosabatlar asosida shakllangan. Shu sababli o'rta asrlar davlatchiligini bugungi davlat tushunchalari asosida baholash tarixiy jarayonning asl mazmunini to'liq ochib bermaydi. Har bir davlatni o'zi mavjud bo'lgan davr, siyosiy muhit va jamiyatning ichki tuzilishidan kelib chiqib o'rganish talab etiladi.

Temuriylar davlati tarixini o'rganishda ham ushbu masala alohida ahamiyat kasb etadi. Amir Temur tomonidan barpo etilgan davlat Markaziy Osiyo tarixida katta hududni qamrab olgan kuchli siyosiy tuzilma sifatida shakllandi. Keyingi davrda Temuriylar sulolasi vakillari ushbu davlatchilik an'analari davom ettirdilar. Shu bilan birga, sulola vakillari o'rtasidagi hokimiyat uchun kurash, hududlarning shahzodalar va harbiy amirlar tasarrufiga berilishi, suyurg'ol tartibining keng qo'llanishi hamda harbiy kuchlarning siyosiy hayotdagi mavqei davlat boshqaruviga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shuning uchun Temuriylar davlatchiligini hukmdorlar faoliyati yoki siyosiy voqealar ketma-ketligi doirasida o'rganish yetarli emas. Davlatning qanday boshqarilgani, hokimiyatning qaysi tayanchlarga asoslangani va markaz bilan hududlar o'rtasidagi munosabatlarning qanday yo'lga qo'yilganini ham aniqlash zarur.

Temuriylar davlatchiligining yana bir muhim xususiyati uning turli tarixiy boshqaruv an'analari tutashgan sharoitda shakllanganidir. Temuriylar davlatida turkiy-mo'g'ul harbiy-siyosiy boshqaruv tajribasi o'troq hududlarda uzoq vaqt davomida qaror topgan fors-islom boshqaruv an'analari bilan uyg'unlashgan. Bir tomondan, ulus, harbiy bo'linish, sulola a'zolarining hududlarni boshqarishdagi o'rni va harbiy amirlarning mavqei kabi tartiblar turkiy-mo'g'ul siyosiy an'analari bilan bog'liq edi. Ikkinchi tomondan, dargoh, devon, moliya ishlari, yozishmalar va shahar hamda viloyatlarni boshqarish tajribasi o'troq davlatchilik an'alariga tayangan. Ushbu ikki yo'nalishning o'zaro uyg'unlashuvi Temuriylar davlat boshqaruvining o'ziga xos qiyofasini belgilagan.

O'rta asrlar davlatlarini o'rganishda "davlatchilik" tushunchasining mazmunini to'g'ri belgilash ham muhimdir. Hozirgi davrda davlat muayyan hudud, qonunlar, davlat idoralari, boshqaruv tizimi va hokimiyat vakolatlarining aniq taqsimlanishi bilan tavsiflanadi. Bunday belgilarni o'rta asr siyosiy tuzilmalaridan aynan shu shaklda izlash to'g'ri bo'lmaydi. O'rta asrlarda hokimiyat ko'p jihatdan hukmdorning shaxsiy mavqei, sulolaviy mansublik, harbiy kuch, amirlarning sadoqati va yer-mulklarni taqsimlash tartibiga bog'liq bo'lgan. Davlat lavozimlari va hududlarni boshqarish huquqi ham hukmdor bilan shaxsiy munosabatlar asosida berilishi mumkin edi. Shu jihatdan o'rta asrlar davlatchiligini o'sha davrga xos hokimiyat munosabatlari orqali tushuntirish tarixiy haqiqatni aniqroq yoritishga xizmat qiladi.

Temuriylar davlatchiligini tushuntirishda M. Veberning davlat va hokimiyat haqidagi qarashlari muhim o‘rin tutadi. U davlatni muayyan hududda qonuniy kuch ishlatish huquqiga da’vo qiluvchi siyosiy uyushma sifatida izohlaydi. Bunday yondashuv davlatni zamonaviy huquqiy belgilar bilan cheklab qo‘ymasdan, hokimiyatning amalda qanday amalga oshirilganiga e’tibor qaratish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu qarashni Temuriylar davriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tatbiq etish ham ayrim qiyinchiliklarni tug‘diradi. XV asr oxiri XVI asr boshlarida Markaziy Osiyodagi siyosiy beqarorlik, sulolaviy kurashlar va harbiy amirlarning kuchli mavqei hukmdorning barcha hududlarda bir xil darajada siyosiy nazorat o‘rnatish imkoniyatini cheklagan.

S.N. Eyzenshtadtning patrimonial davlat haqidagi qarashlari Temuriylar boshqaruvining ayrim jihatlarini tushuntirish uchun yana bir nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu qarashga ko‘ra, an’anaviy jamiyatlarda siyosiy hokimiyat uni amalga oshiruvchi shaxsdan qat’iy ajratilmagan. Davlat lavozimlari, hududiy mulklar va harbiy boshqaruv hukmdor tomonidan muayyan kishilarga berilgan vakolat sifatida namoyon bo‘lgan. Bunday vakolat hukmdorga shaxsiy sadoqat bilan chambarchas bog‘langan. Temuriylar davlatidagi suyurg‘ol tartibi, shahzodalarga hududlarning berilishi va amirlarning harbiy hamda ma’muriy vazifalarni birgalikda bajarishi ushbu masalani o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

M.G.S. Xodjson islom Sharqidagi o‘rta asr davlatlarini o‘rganishda harbiy tabaqaning o‘rniga alohida e’tibor qaratgan. Uning fikricha, bu davlatlarda G‘arbiy Yevropadagi kabi yer va lavozimlarga mustahkam merosiy huquqqa ega zodagonlar tabaqasi shakllanmagan. Siyosiy hokimiyat ko‘p jihatdan harbiy xizmat evaziga yer yoki daromad manbalaridan foydalanish huquqiga ega bo‘lgan amir va beklarga tayangan. Ushbu holat Temuriylar davlatidagi harbiy kuch bilan hududiy boshqaruv o‘rtasidagi yaqin aloqani tushunishda muhimdir. Harbiy amirlarning davlat boshqaruvida faol qatnashishi markaziy hokimiyat uchun tayanch vazifasini bajargan. Ayni paytda ularning kuchayishi ayrim davrlarda markaziy hokimiyatning zaiflashishiga ham olib kelgan.

M.E. Subtelni Temuriylar davlatchiligini ko‘chmanchi va o‘troq siyosiy an’analar uyg‘unligi asosida izohlaydi. Uning tadqiqotida turkiy-mo‘g‘ul harbiy an’analari fors boshqaruv tajribasi bilan birga amal qilgani ko‘rsatilgan. Islom huquqi bilan mo‘g‘ullarning yasa tartiblari, hukmron sulola vakillari o‘rtasida hokimiyatni taqsimlash an’analari bilan shahar va viloyatlarni boshqarish tartibining yonma-yon mavjudligi Temuriylar davlatchiligiga xos xususiyatlardan edi. Bu uyg‘unlik davlat boshqaruvining imkoniyatlarini kengaytirgan bo‘lsa-da, markaziy hokimiyat bilan harbiy zodagonlar o‘rtasidagi munosabatlarda doimiy muvozanatni saqlashni talab qilgan.

Temuriylar davlatining ichki boshqaruvini o‘rganishda sulolaviy hokimiyat masalasi ham muhim o‘rin egallaydi. V.V. Bartold Temuriy hukmdorlarning siyosiy mavqei Amir Temur

avlodiga mansublik hamda Chingiziylar an'anasi bilan qarindoshlik aloqalariga tayanganini ko'rsatadi. B.F.Maniz esa sulolaga mansublikning o'zi hukmdorning amaldagi hokimiyatini saqlab qolishi uchun yetarli bo'lmaganiga e'tibor qaratadi. Hukmdor harbiy amirlarning qo'llab-quvvatlashiga ham tayanishi kerak edi. Shu jihatdan Temuriylar davlatidagi oliy hokimiyat sulolaviy mansublik, harbiy kuch va siyosiy tayanchning o'zaro bog'liqligi asosida faoliyat yuritgan.

Hududiy boshqaruvda suyurg'ol tartibi alohida ahamiyat kasb etgan. Viloyatlar sulola vakillari, hukmdorning qarindoshlari va xizmat ko'rsatgan harbiy boshliqlarga suyurg'ol tarzida berilgan. Nazariy jihatdan hukmdor bunday yerlarni qaytarib olish huquqiga ega edi. Amaliyotda esa hududiy boshqaruvchilarning harbiy kuch, soliq tushumlari va mahalliy boshqaruvni o'z qo'lida jamlashi ularning siyosiy mavqeiini mustahkamlagan. L.V. Stroyeva Temuriylar davrining keyingi bosqichlarida markaziy hokimiyat bilan hududiy suyurg'ol egalari o'rtasidagi kurash siyosiy jarayonlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylanganini ko'rsatadi.

Shu asosda Temuriylar davlatchiligini bir-biri bilan bog'liq uchta asosiy yo'nalish orqali o'rganish mumkin. Birinchi yo'nalish oliy hokimiyatning sulolaviy asoslarini, ikkinchisi davlat va jamiyat hayotidagi harbiy tuzilmalarning o'rnini, uchinchisi hududlarni suyurg'ol egalari orqali boshqarish tartibini qamrab oladi. Mazkur uch yo'nalish bir-biridan ajralgan holda faoliyat yuritmagan. Amirlar bir vaqtning o'zida harbiy qo'shinlarga boshchilik qilgan, hududlarni boshqargan, soliq tushumlarini nazorat qilgan va hukmdorning siyosiy tayanchi sifatida maydonga chiqqan. Shu bois Temuriylar davlatchiligini yaxlit siyosiy boshqaruv tizimi sifatida o'rganish uning ichki xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi o'rta asrlar islom Sharqi sharoitida davlatchilik tushunchasining mazmunini aniqlash hamda shu asosda Temuriylar davlatidagi hokimiyat va boshqaruvning asosiy tayanchlarini yoritishdan iborat. Tadqiqotda oliy hokimiyatning sulolaviy tamoyili, jamiyatning harbiy tashkil etilishi va hududlarni suyurg'ol egalari orqali boshqarish tartibi o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Temuriylar davlatchiligi Usmoniylar imperiyasi, Safaviylar davlati va Oltin O'rda bilan qiyoslanishi ham masalaning o'ziga xos tomonlarini aniqlashga yordam beradi. Bunday yondashuv Temuriylar davlatini o'z davrining siyosiy, harbiy va ijtimoiy sharoitlari asosida tushuntirish hamda uning Markaziy Osiyo davlatchiligi tarixidagi o'rnini aniqroq belgilash imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili. Temuriylar davlatchiligi va boshqaruv tizimini o'rganishga oid ilmiy adabiyotlarni mazmuniga ko'ra bir necha yo'nalishga ajratish mumkin. Birinchi yo'nalishga davlat va hokimiyatning nazariy asoslarini yoritgan tadqiqotlar kiradi. Ikkinchi yo'nalish islom Sharqidagi o'rta asr davlatlarining siyosiy va harbiy tuzilishiga bag'ishlangan asarlardan iborat.

Uchinchi yo‘nalishda Temuriylar davlati, sulolaviy hokimiyat, harbiy boshqaruv va suyurg‘ol tizimi bevosita o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlarni birgalikda tahlil qilish Temuriylar davlatchiligining nazariy asoslari bilan uning tarixiy ko‘rinishlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash imkonini beradi.

Davlat va hokimiyat masalalarining nazariy asoslarini o‘rganishda M. Veberning qarashlari muhim o‘rin tutadi. Olim “Economy and Society” asarida davlatga huquqiy tushuncha sifatida qarash bilan cheklanmay, uning jamiyatdagi amaliy faoliyatiga e‘tibor qaratgan. M. Veber davlatni muayyan hudud doirasida qonuniy kuch ishlatish huquqini o‘z qo‘lida saqlashga intiluvchi siyosiy uyushma sifatida tushuntiradi. Uning tadqiqotida hokimiyatning an‘anaviy, shaxsiy obro‘ga asoslangan va qonuniy tartibga tayangan ko‘rinishlari ajratib ko‘rsatilgan. Bu qarashlar o‘rta asrlar davlatchiligini zamonaviy davlatlarga xos rasmiy belgilar asosida baholashdan voz kechib, hokimiyatning amalda qanday ishlaganiga e‘tibor qaratish imkonini beradi. Shu jihatdan M. Veberning qarashlari Temuriylar davlatchiligini o‘rganish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Biroq uning tadqiqotida ko‘chmanchi jamiyatlarga xos harbiy-siyosiy boshqaruv alohida masala sifatida chuqur o‘rganilmagan. Shu sababli Temuriylar davlatchiligini tushuntirishda mazkur qarashlarni boshqa tadqiqotlar bilan to‘ldirish zarurati yuzaga keladi.

S.N. Eyzenshtadtning “Traditional Patrimonialism and Modern Neopatrimonialism” asari an‘anaviy jamiyatlardagi davlat va hokimiyat munosabatlarini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Olim M. Veberning an‘anaviy hokimiyat haqidagi qarashlarini davom ettirib, patrimonial boshqaruvning asosiy xususiyatlarini yoritgan. Uning fikricha, bunday davlatlarda hokimiyat davlat boshlig‘ining shaxsi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Davlat lavozimlari, hududlarni boshqarish va harbiy qo‘mondonlik hukmdor tomonidan berilgan vakolat sifatida qaralgan. Ushbu vakolatlarni olgan kishilarning mavqei ularning hukmdorga sadoqati bilan bog‘langan. S.N. Eyzenshtadt turli an‘anaviy jamiyatlarni qiyosiy o‘rganib, davlat ishlari bilan hukmdorning shaxsiy manfaatlari o‘rtasidagi chegara aniq bo‘lmaganini ko‘rsatgan. Bu qarash Temuriylar davrida shahzodalar va amirlarga hududlarning berilishi, harbiy va ma‘muriy vazifalarning bir shaxs qo‘lida jamlanishi kabi holatlarni tushuntirishga yordam beradi. Shu bilan birga, S.N. Eyzenshtadt Temuriylar tarixini maxsus o‘rganmagan. Shuning uchun uning nazariy qarashlarini Temuriylar davriga oid manbalar va maxsus tarixiy tadqiqotlar bilan qiyoslab qo‘llash talab etiladi.

Islom Sharqidagi o‘rta asr davlatlarining rivojlanish xususiyatlarini o‘rganishda M.G.S. Xodjonning “The Venture of Islam” asari alohida o‘rin egallaydi. Muallif islom dunyosining bir necha asrluk tarixini umumiy tarzda o‘rganib, davlat boshqaruvi va harbiy tabaqaning siyosiy hayotdagi mavqeiga e‘tibor qaratgan. M.G.S. Xodjonning fikricha, islom Sharqidagi o‘rta asr davlatlarida G‘arbiy Yevropadagi kabi yer va davlat lavozimlariga doimiy merosiy huquqqa ega

zodagonlar tabaqasi shakllanmagan. Hokimiyat ko'p hollarda harbiy amirlar va beklarga tayangan. Ular harbiy xizmat evaziga iqto yoki suyurg'ol shaklida yer va daromad manbalaridan foydalanish huquqiga ega bo'lgan. Mazkur qarash Temuriylar davlatida harbiy xizmat, yer-mulk taqsimoti va siyosiy hokimiyat o'rtasidagi aloqalarni tushunishga yordam beradi. M.G.S. Xodjson islom dunyosini keng tarixiy doirada o'rganganligi sababli Temuriylar davlatiga alohida va batafsil to'xtalmagan. Shu bois uning xulosalari Temuriylar davriga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar bilan birga ko'rib chiqilishi lozim.

Temuriylar davlatchiligining shakllanishi va rivojlanishini bevosita o'rgangan tadqiqotchilar orasida M.E. Subtelning ishlari muhim o'rin tutadi. Uning "Timurids in Transition" asarida Temuriylar davlati turkiy-mo'g'ul harbiy an'analari va fors-islom boshqaruv tajribasi uyg'unlashgan siyosiy tuzilma sifatida baholanadi. M.E. Subtelni ko'chmanchi va o'troq boshqaruv an'alarining o'zaro ta'sirini Temuriylar davlatchiligining asosiy xususiyatlaridan biri sifatida ko'rsatadi. Uning yondashuvi M. Veber, S.N. Eyzenshtadt va M.G.S. Xodjsonning umumiy nazariy qarashlarini Temuriylar tarixiga oid aniq ma'lumotlar bilan bog'lash imkonini beradi. Biroq M.E. Subtelni tadqiqotida ushbu uyg'unlikning sulolaviy hokimiyat, harbiy tuzilma va hududiy boshqaruv kabi alohida yo'nalishlarda namoyon bo'lishi yagona tizim sifatida batafsil tahlil qilinmagan.

Temuriylar davlatida oliy hokimiyatning sulolaviy asoslarini o'rganishda V.V. Bartold tadqiqotlari katta ilmiy ahamiyatga ega. Olim Markaziy Osiyo hukmdorlarining siyosiy mavqei va hokimiyatga bo'lgan huquqini tarixiy manbalar asosida tahlil qilgan. V.V. Bartold Temuriylar hokimiyatining tayanchlarini Amir Temur avlodiga mansublik va Chingiziylar an'anasi bilan bog'liq qarindoshlik aloqalari orqali tushuntiradi. Amir Temurning Chingiziy malikalar bilan nikoh orqali qarindoshligi va "Ko'ragon" unvonidan foydalanishi ushbu siyosiy an'ana bilan bog'langan. Mazkur qarash Temuriylar sulolasi hukmronligining tarixiy asoslarini tushuntirishda muhim o'rin tutadi.

B.F. Manzning "The Rise and Rule of Tamerlane" asarida masalaning boshqa tomoni yoritilgan. Tadqiqotchi fors va turkiy tillardagi ko'plab yozma manbalardan foydalanib, Temuriylar siyosiy hokimiyatining amaliy asoslarini tahlil qilgan. Uning fikricha, sulolaga mansublik hukmdorning hokimiyatga bo'lgan huquqini asoslagan, ammo real siyosiy hokimiyatni saqlab qolish uchun buning o'zi yetarli bo'lmagan. Hukmdor harbiy zodagonlar va amirlarning qo'llab-quvvatlashiga ham muhtoj edi. Shu jihatdan B.F. Manz V.V. Bartold tomonidan yoritilgan sulolaviy asoslarni harbiy-siyosiy kuchlar o'rtasidagi munosabatlar bilan to'ldiradi. V.V. Bartold hokimiyatning tarixiy va sulolaviy asoslariga ko'proq e'tibor qaratgan bo'lsa, B.F. Manz uning

amalda qanday saqlab turilganini ko'rsatishga intilgan. Ushbu ikki yondashuv Temuriylar oliy hokimiyatining mohiyatini kengroq tushunish imkonini beradi.

Temuriylar davridagi hududiy boshqaruv va suyurg'ol munosabatlarini o'rganishda L.V. Stroyevaning "Государство и феодальная знать в Средней Азии при Тимуридах" tadqiqoti muhim manbalardan biridir. Muallif Temuriylar davrining keyingi bosqichidagi siyosiy jarayonlarni o'rganib, suyurg'ol tartibining markaziy hokimiyat bilan hududiy yer egalari o'rtasidagi munosabatlarga ta'sirini ko'rsatgan. Suyurg'ol egalarining o'z hududlarida harbiy, moliyaviy va boshqaruv imkoniyatlariga ega bo'lishi ularning siyosiy mavqeini kuchaytirgan. Bu holat ayrim davrlarda markaziy hokimiyat bilan hududiy boshqaruvchilar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning kuchayishiga olib kelgan. L.V. Stroyevaning tadqiqoti Temuriylar davlatchiligining hududiy boshqaruv tomonini yoritishda batafsil ishlardan biri hisoblanadi.

Temuriylar davlatining markaziy boshqaruv tuzilishi Sh.M. Uljaeva tomonidan ham o'rganilgan. Uning "Amir Temur davlat boshqaruvi" asarida A. Ziyo va B.F. Manz tadqiqotlariga tayangan holda markaziy boshqaruvning asosiy bo'g'inlari yoritilgan. Muallif dargoh va unga bo'ysunuvchi devon faoliyatiga alohida e'tibor qaratadi. Devon tarkibida Devoni A'lo va Devoni Buzurg faoliyat yuritgani qayd etilgan. Ushbu ma'lumotlar Temuriylar davlatidagi markaziy boshqaruv, harbiy va ma'muriy vazifalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda muhimdir. Sh.M. Uljaevaning tadqiqoti V.V. Bartold va M.E. Subtelni asarlaridagi umumiy qarashlarni davlat boshqaruvining aniq bo'g'inlariga oid ma'lumotlar bilan boyitadi.

Ko'rib chiqilgan tadqiqotlar Temuriylar davlatchiligini turli tomonlardan yoritadi. M. Veber va S.N. Eyzenshtadt davlat hamda hokimiyatni tushuntirish uchun nazariy asoslarni ishlab chiqqan. M.G.S. Xodjson islom Sharqidagi harbiy-siyosiy boshqaruvning umumiy xususiyatlarini ochib bergan. M.E. Subtelni Temuriylar davlatida ko'chmanchi va o'troq boshqaruv an'analari uchun uyg'unlashuviga e'tibor qaratgan. V.V. Bartold va B.F. Manz oliy hokimiyatning sulolaviy hamda harbiy-siyosiy tayanchlarini yoritgan. L.V. Stroyeva suyurg'ol va hududiy boshqaruv masalalarini tadqiq etgan bo'lsa, Sh.M. Uljaeva markaziy davlat boshqaruvi tuzilishini o'rgangan.

Shunga qaramay, ushbu ilmiy yo'nalishlar ko'p hollarda bir-biridan alohida rivojlangan. Umumiy nazariy tadqiqotlarda Temuriylar davlati maxsus tadqiqot obyekti sifatida keng o'rganilmagan. Temuriylar tarixiga bag'ishlangan ishlarda esa sulolaviy hokimiyat, harbiy boshqaruv va suyurg'ol tartibi ko'proq alohida masalalar sifatida tahlil qilingan. Ularning yagona davlat boshqaruvi doirasidagi o'zaro bog'liqligi yetarli darajada ochib berilmagan. Shu sababli mazkur maqolada mavjud nazariy qarashlar va Temuriylar tarixiga oid maxsus tadqiqotlar o'zaro bog'liq holda o'rganiladi. Bu yondashuv oliy hokimiyatning sulolaviy tamoyili, harbiy tuzilma va

suyurg'ol asosidagi hududiy boshqaruvni Temuriylar davlatchiligining o'zaro bog'langan tarkibiy qismlari sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Metodlar. Tadqiqotda Temuriylar davlatchiligi XV-XVI asrlarda shakllangan va rivojlangan siyosiy boshqaruv tizimi sifatida o'rganildi. Asosiy e'tibor o'rta asrlar islom Sharqiga xos davlatchilik haqidagi nazariy qarashlarni Temuriylar davlati misolida tahlil qilishga qaratildi. Shu asosda oliy hokimiyatning sulolaviy tamoyili, jamiyatning harbiy tuzilishi hamda hududlarni suyurg'ol egalari orqali boshqarish tartibi tadqiqotning asosiy yo'nalishlari sifatida belgilandi. Mazkur uch yo'nalish alohida hodisa sifatida emas, o'zaro bog'langan davlat boshqaruvi tizimining tarkibiy qismlari sifatida ko'rib chiqildi.

Tadqiqotning manbaviy asosini mavzuga oid nashr etilgan ilmiy asarlar tashkil etdi. Davlat va hokimiyatning nazariy masalalarini yoritishda M. Veber, S.N. Eyzenshtadt va M.G.S. Xodjsonning tadqiqotlariga murojaat qilindi. Temuriylar davlatchiligining tarixiy xususiyatlarini o'rganishda M.E. Subtelni, B.F. Manz, V.V. Bartold, L.V. Stroyeva va Sh.M. Uljaeva asarlaridan foydalanildi. Mazkur tadqiqotlar Temuriylar davlatchiligiga oid nazariy qarashlar, sulolaviy hokimiyat, harbiy boshqaruv va suyurg'ol tartibini bir-biri bilan bog'liq holda o'rganish imkonini berdi. Maqola nazariy umumlashtirishga qaratilganligi sababli yozma manbalarni alohida manbashunoslik tadqiqoti asosida o'rganish asosiy vazifa sifatida belgilanmadi.

Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy usul yetakchi o'rin egalladi. Ushbu usul ikki yo'nalishda qo'llanildi. Dastlab M. Veber, S.N. Eyzenshtadt, M.G.S. Xodjson va M.E. Subtelning davlat hamda hokimiyat haqidagi qarashlari o'zaro qiyoslandi. Bu orqali ularning o'rta asrlar islom Sharqi davlatchiligini tushuntirishdagi imkoniyatlari va ayrim cheklangan jihatlari aniqlandi. Har bir tadqiqotchining yondashuvi Temuriylar tarixiga oid ma'lumotlar bilan solishtirilib, ularning bir-birini to'ldiruvchi tomonlariga e'tibor qaratildi.

Tarixiy-qiyosiy usulning ikkinchi yo'nalishi Temuriylar davlatini o'sha davrdagi boshqa yirik siyosiy tuzilmalar bilan solishtirishga qaratildi. Temuriylar davlatchiligining ayrim xususiyatlari Usmoniylar imperiyasi, Safaviylar davlati va Oltin O'rda boshqaruv tajribasi bilan qiyoslandi. Bunda oliy hokimiyatning shakllanishi, harbiy kuchlarning davlat boshqaruvidagi o'rni, hududlarni boshqarish tartibi hamda markaziy hokimiyatning harbiy zodagonlar bilan munosabatlariga e'tibor berildi. Bunday qiyoslash Temuriylar davlatiga xos umumiy va o'ziga xos jihatlarni aniqlashga xizmat qildi.

Tarixiy-genetik usul davlat boshqaruviga oid ayrim tartiblarning kelib chiqishi va keyingi rivojlanishini kuzatishda qo'llanildi. Xususan, Temuriylar davlatidagi harbiy-ma'muriy bo'linishning tuman, minglik, yuzlik va o'nlik shakllari mo'g'ullar davridan davom etgan boshqaruv an'analari bilan bog'liq holda ko'rib chiqildi. Temuriylar ushbu tartibni o'z davlatining

siyosiy va harbiy ehtiyojlariga moslashtirgan. Bu masalani yoritishda “Temur tuzuklari”dagi ma’lumotlarga murojaat qilindi.

Tarixshunoslik usuli mavzuga oid ilmiy qarashlarning shakllanishi va rivojlanishini aniqlashda qo‘llanildi. Mavjud tadqiqotlarda ilgari surilgan fikrlar o‘zaro qiyoslandi, ularning Temuriylar davlatchiligini o‘rganishga qo‘shgan hissasi baholandi. Shu bilan birga, avvalgi tadqiqotlarda yetarli darajada yoritilmagan masalalarni aniqlashga e’tibor qaratildi. Bu usul umumiy nazariy qarashlar bilan Temuriylar tarixiga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatish imkonini berdi.

Tadqiqot davomida tarixiy voqea va jarayonlarni o‘z davri sharoitidan kelib chiqib baholash tamoyiliga amal qilindi. Temuriylar davlatidagi boshqaruv tartiblari bugungi davlat tizimi bilan o‘lchanmadi. Sulolaviy hokimiyat, harbiy boshqaruv va suyurg‘ol tartibi XV-XVI asrlardagi siyosiy hamda ijtimoiy munosabatlar doirasida tahlil qilindi. Shu tariqa qo‘llanilgan usullar Temuriylar davlatchiligini bir-biri bilan bog‘liq siyosiy va boshqaruv munosabatlari tizimi sifatida o‘rganishga xizmat qildi.

Natijalar va muhokama

1. O‘rta asrlar davlatchiligini o‘rganishda davlat tushunchasining mazmunini tarixiy sharoitdan kelib chiqib belgilash muhimdir. Bu masalada M. Veberning davlat haqidagi qarashlari muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. U davlatni muayyan hududda qonuniy jismoniy kuch ishlatish huquqini o‘z qo‘lida saqlashga intiluvchi siyosiy uyushma sifatida ta’riflagan. Ushbu qarash davlatning rasmiy-huquqiy belgilaridan ko‘ra hokimiyatning amalda qanday ishlashiga e’tibor qaratadi. Shu jihatdan u sanoatlashuvdan oldingi Sharq davlatlarini o‘rganishda ham muhim ahamiyatga ega.

Biroq M. Veberning mazkur qarashini Temuriylar davlatiga aynan qo‘llash ayrim cheklavlarga ega. XV asr oxiri XVI asr boshlarida Markaziy Osiyoda siyosiy beqarorlik va o‘zaro harbiy kurashlar davom etgan. Bunday sharoitda hukmdorning kuch ishlatish ustidan nazorati barcha hududlarda bir xil bo‘lmagan. Hukmdor o‘z mavqeini harbiy g‘alabalar, amir va beklar bilan munosabatlarni tartibga solish orqali muntazam mustahkamlab turishi kerak edi. Shu sababli Temuriylar davlatchiligida oliy hukmdorning harbiy kuch ustidan nazorati doimiy va o‘zgarmas holat sifatida emas, siyosiy kurash davomida saqlab turiladigan hokimiyat sifatida namoyon bo‘lgan.

Temuriylar davlatchiligini tushuntirishda S.N. Eyzenshtadt tomonidan ishlab chiqilgan patrimonial davlat haqidagi qarashlar ham muhim o‘rin tutadi. Ushbu qarashga ko‘ra, an’anaviy jamiyatlarda siyosiy hokimiyat hukmdorning shaxsi bilan chambarchas bog‘langan. Davlat lavozimlari, hududiy mulklar va harbiy boshqaruv hukmdor tomonidan berilgan vakolat

hisoblangan. Bunday vakolatni olgan shaxsning mavqei uning hukmdorga sadoqati bilan belgilangan. Davlat boshqaruvi bilan hukmdorning shaxsiy hokimiyati o'rtasida qat'iy chegara mavjud bo'lmagan.

Mazkur qarash Temuriylar davlatidagi siyosiy munosabatlarni tushuntirishga yordam beradi. Sulola vakillari va hukmdorga yaqin harbiy amirlarga hududlarning berilishi davlat boshqaruvining keng tarqalgan tartiblaridan edi. Shu ma'noda, yer va boshqaruv vakolatlarini taqsimlash hukmdorning siyosiy tayanchlarini mustahkamlash vositasi bo'lib xizmat qilgan. Ayni paytda bu tartib hududiy hokimlarning kuchayishi uchun ham sharoit yaratgan. Ushbu xulosa S.N. Eyzenshtadtning o'z asarida Temuriylar haqida bildirilgan fikr emas, balki uning patrimonial davlat haqidagi qarashlarini Temuriylar tarixiga tatbiq etish asosida chiqarilgan xulosadir.

M.G.S. Xodjson islom o'rta asrlaridagi davlatlarda harbiy tabaqaning siyosiy o'rniga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, G'arbiy Yevropa davlatlaridan farqli ravishda, islom Sharqida yer va davlat lavozimlariga mustahkam merosiy huquqqa ega zodagonlar tabaqasi to'liq shakllanmagan. Davlatlar ko'proq harbiy amir va beklarga tayangan. Ular xizmatlari evaziga iqto yoki suyurg'ol tarzida yer va daromad manbalaridan foydalanish huquqiga ega bo'lgan. Bunday tartib hukmdorga yer va boshqa imkoniyatlarni siyosiy vaziyatga qarab taqsimlash imkonini bergan. Shu bilan birga, davlatning barqarorligi hukmdorning shaxsiy obro'si va harbiy kuchlarni o'z atrofida birlashtira olish qobiliyatiga bog'liq bo'lib qolgan. Hokimiyat almashgan davrlarda bu holat siyosiy kurashlarning kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin edi.

M.E. Subtelni Temuriylar davlatchiligini turkiy-mo'g'ul harbiy an'analari va fors boshqaruv tajribasi o'zaro uyg'unlashgan siyosiy tuzilma sifatida baholaydi. Temuriylar davlatida turkiy-mo'g'ul harbiy tartiblari, islom huquqi, mo'g'ullarning yasa an'analari hamda o'troq hududlarga xos boshqaruv tajribasi yonma-yon amal qilgan. Hukmron sulola a'zolari o'rtasida hududlarni taqsimlash an'anasi shahar va viloyatlarni boshqarishga asoslangan o'troq davlat tizimi bilan birga mavjud bo'lgan. Bu holat Temuriylar davlat boshqaruviga o'ziga xos xususiyat bergan. Shu bilan birga, markaziy hokimiyatning davlatni birlashtirishga intilishi bilan harbiy amirlar va hududiy hokimlarning o'z mavqeini saqlashga bo'lgan harakati o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelib turgan.

Mazkur qarashlarni qiyoslash ularning Temuriylar davlatchiligining turli tomonlarini tushuntirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. M. Veber davlat hokimiyatining amalga oshirilishiga e'tibor qaratadi. S.N. Eyzenshtadt hokimiyat va hukmdor shaxsi o'rtasidagi munosabatlarni tushuntiradi. M.G.S. Xodjson islom Sharqidagi harbiy tabaqaning siyosiy mavqeini yoritadi. M.E. Subtelni esa Temuriylar davlatida ko'chmanchi va o'troq boshqaruv an'alarining o'zaro

uyg'unlashganini ko'rsatadi. Ushbu qarashlarni birgalikda qo'llash Temuriylar davlatchiligini o'z davrining siyosiy va ijtimoiy sharoitlari asosida tushuntirish imkonini beradi.

Shundan kelib chiqib, o'rta asrlar islom Sharqidagi davlatchilikning bir necha asosiy belgilarini ajratish mumkin. Hukmdor muayyan hududda harbiy kuch ustidan oliy nazorat o'rnatishga intilgan. Davlat lavozimlari va hududlarni boshqarish huquqi ko'p jihatdan hukmdorning irodasi hamda unga sadoqat bilan bog'langan. Davlat ishlari bilan hukmdorning shaxsiy hokimiyati o'rtasidagi chegara hozirgi davlatlardagi kabi aniq ajratilmagan. Davlat boshqaruvida ko'chmanchi harbiy-siyosiy an'analar bilan o'troq ma'muriy tajriba birga amal qilgan. Ana shu belgilar Temuriylar davlatchiligini o'rganish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

2. Temuriylar davlatida oliy hokimiyatning shakllanishi sulolaviy mansublik bilan chambarchas bog'liq edi. V.V. Bartold Markaziy Osiyo hukmdorlarining siyosiy mavqei ikki asosga tayanganini ko'rsatadi. Birinchisi Amir Temur avlodiga mansublik bo'lsa, ikkinchisi Chingiziylar an'anasi bilan qarindoshlik aloqalariga ega bo'lish edi. Amir Temur Chingizxonning erkak avlodidan bo'lmagani uchun xon unvonini qabul qilmagan. U "amir" unvonidan foydalangan va Chingiziylar sulolasi bilan nikoh aloqalari orqali "Ko'ragon" mavqeiga ega bo'lgan. Temuriy hukmdorlar esa "mirzo" unvonidan foydalangan.

Bu tartib Temuriylar hokimiyatiga tarixiy asos bergan bo'lsa-da, sulola ichidagi siyosiy kurashlarning oldini olmagan. Amir Temur avlodiga mansub kuchli shahzodalar hokimiyat uchun da'vo qilish imkoniga ega edi. Shu sababli sulolaviy mansublik davlat birligini ta'minlovchi omil bo'lish bilan birga, ayrim hollarda hududiy bo'linish va taxt uchun kurashlarning kuchayishiga ham sharoit yaratgan.

B.F. Manz ushbu masalani amaldagi siyosiy kuchlar o'rtasidagi munosabatlar orqali tushuntiradi. Uning tadqiqotiga ko'ra, Temuriylar sulolasiga mansublik hukmdor uchun zarur siyosiy asos bo'lgan, ammo hokimiyatni amalda saqlash uchun buning o'zi yetarli emas edi. Harbiy amirlar qo'llovidan ayrilgan hukmdor sulolaviy mavqeini saqlab qolishi mumkin bo'lsa-da, amaldagi hokimiyatini yo'qotgan.

V.V. Bartold va B.F. Manz qarashlarini qiyoslash Temuriylar oliy hokimiyatining ikki muhim tomonini ko'rsatadi. Sulolaga mansublik hukmdorning hokimiyatga bo'lgan huquqini asoslagan. Harbiy-siyosiy kuchlarning qo'llab-quvvatlashi esa ushbu huquqni amalda ro'yobga chiqarish imkonini bergan. Shu sababli Temuriylar davlatida sulolaviy tamoyilni taxtning oddiy meros bo'lib o'tish tartibi sifatida tushunish yetarli emas. Hukmdor o'z mavqeini siyosiy faoliyat va harbiy kuch orqali muntazam mustahkamlab turishi talab etilgan. Mazkur xulosa V.V. Bartold va B.F. Manz tadqiqotlarini o'zaro qiyoslash asosida chiqarilgan.

3. Temuriylar davlatida harbiy tuzilma davlat boshqaruvining muhim tayanchlaridan biri bo'lgan. Qo'shin tashqi yurishlarni amalga oshirish vositasi bo'lish bilan birga, ichki siyosiy tartibni saqlashda ham katta o'rin tutgan. "Temur tuzuklari"dagi ma'lumotlarga ko'ra, davlatda mo'g'ullar davridan davom etgan harbiy-ma'muriy bo'linish tartibi saqlangan. Qo'shin tuman, minglik, yuzlik va o'nliklarga ajratilgan. Bu ma'lumot asarda bevosita qayd etilgan bo'lib, keyingi tadqiqotchilarning talqini hisoblanmaydi.

Sh.M. Uljaeva A. Ziyov va B.F. Manz tadqiqotlariga tayangan holda davlatning markaziy va hududiy boshqaruvi dargoh hamda devon orqali amalga oshirilganini ko'rsatadi. Dargoh hukmdor saroyi va uning atrofidagi boshqaruvni ifodalagan. Devon esa davlat ishlarini yurituvchi boshqaruv bo'g'ini bo'lgan. Uning tarkibida Devoni A'lo va Devoni Buzurg faoliyat ko'rsatgan.

Temuriylar davlatchiligining muhim xususiyati harbiy va fuqaroviy boshqaruv vazifalarining o'zaro yaqinligida ko'rinadi. Amirlar qo'shinlarga boshchilik qilish bilan birga, viloyatlarni boshqargan, soliq tushumlarini nazorat qilgan va o'zlariga berilgan hududlarda ayrim sud ishlarini ham amalga oshirgan. Shu sababli harbiy boshqaruv bilan hududiy boshqaruv o'rtasida qat'iy chegara bo'lmagan. Harbiy amir bir vaqtning o'zida davlatning hududdagi siyosiy tayanchi ham hisoblangan. Bu holat Temuriylar davlatchiligida harbiy kuchning davlat boshqaruvidagi mavqei yuqori bo'lganini ko'rsatadi.

4. Temuriylar davlatidagi hududiy boshqaruvning muhim shakllaridan biri suyurg'ol tartibi edi. Viloyat va hududlar sulola a'zolari, hukmdorning qarindoshlari hamda xizmat ko'rsatgan harbiy amirlarga suyurg'ol sifatida berilgan. Suyurg'ol G'arbiy Yevropadagi merosiy yer egaligidan ayrim jihatlari bilan farq qilgan. Nazariy jihatdan hukmdor berilgan suyurg'olni qaytarib olish imkoniyatiga ega bo'lgan. Shu sababli suyurg'ol egasining hudud ustidan huquqi mutlaq va o'zgarmas hisoblanmagan.

Amaliy siyosiy hayotda esa suyurg'ol egalarining kuchayishi markaziy hokimiyat uchun murakkab vaziyatni yuzaga keltirgan. Hududiy boshqaruvchilar o'z tasarrufidagi harbiy kuch, soliq tushumlari va mahalliy boshqaruv ustidan nazorat o'rnatgan. Bu ularning siyosiy imkoniyatlarini kengaytirgan. Markaziy hokimiyat zaiflashgan davrlarda bunday hokimlar mustaqil siyosiy kuch sifatida maydonga chiqishi mumkin edi.

L.V. Stroyeva Temuriylar davrining keyingi bosqichlaridagi siyosiy jarayonlarni o'rganib, markaziy hokimiyat bilan hududiy suyurg'ol egalari o'rtasidagi kurashga alohida e'tibor qaratgan. Hukmdor davlatni boshqarishda harbiy amirlarga tayanishga majbur edi. Shu bilan birga, ularga berilgan hudud va vakolatlar amirlarning kuchayishiga olib kelgan. Bu esa markaziy hokimiyat uchun yangi siyosiy xavf tug'dirgan. Demak, suyurg'ol tizimi davlatni boshqarish vositasi bo'lish bilan birga, markazdan uzoqlashish mayllarining kuchayishiga ham sharoit yaratgan.

Harbiy boshqaruv va suyurg'ol tartibini o'zaro qiyoslash ular o'rtasida yaqin bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Bir shaxsning o'zi harbiy amir, hududiy boshqaruvchi va suyurg'ol egasi bo'lishi mumkin edi. Shuning uchun Temuriylar davlatidagi harbiy va hududiy boshqaruvni bir-biridan butunlay ajratib o'rganish masalaning mohiyatini to'liq ochib bermaydi. Ular yagona hokimiyat tizimining o'zaro bog'langan qismlari bo'lgan.

5. Temuriylar davlatchiligining o'ziga xos jihatlari aniqlash uchun uni o'sha davrdagi boshqa siyosiy tuzilmalar bilan qiyoslash muhimdir. V.V. Bartold Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi ikki tarixiy an'ana ta'sirida shakllanganini ta'kidlaydi. Birinchi yo'nalish mo'g'ullarga xos harbiy-ma'muriy boshqaruv, ulus tartibi va bosib olingan hududlarni hukmron sulolaning umumiy mulki sifatida tushunish bilan bog'liq edi. Ikkinchi yo'nalish mahalliy o'troq boshqaruv tajribasiga tayangan. Unda kotiblar, moliya ishlari bilan shug'ullanuvchi amaldorlar, fors tilidagi davlat yozishmalari va Movarounnahr shaharlarining uzoq yillik boshqaruv tajribasi muhim o'rin egallagan.

Temuriylar davlatini Usmoniylar imperiyasi, Safaviylar davlati va Oltin O'rda bilan qiyoslash uning ayrim o'ziga xos tomonlarini ko'rsatadi. Maqolada bu masala, ayniqsa, Usmoniylar davlatidagi boshqaruv tajribasi bilan qiyoslash orqali yoritilgan. Usmoniylarda devshirme tartibi orqali urug'-qabila aloqalariga bog'lanmagan va bevosita sultonga qaram bo'lgan harbiy hamda boshqaruv xodimlari tayyorlangan. Bu tartib vaqt o'tishi bilan sulolaga bevosita bo'ysunuvchi boshqaruv qatlamining shakllanishiga yordam bergan. Temuriylar davlatida esa hukmdor turkiy qabila amirlari va harbiy zodagonlarning sadoqatiga ko'proq bog'liq bo'lib qolgan. Maqolada ushbu qiyos S.N. Eyzenshtadt qarashlari asosida berilgan mualliflik talqini sifatida qayd etiladi.

V.V. Bartoldning ma'lumotlari ham markaziy hokimiyat bilan hududiy boshqaruv o'rtasidagi munosabatni tushunishga yordam beradi. Uning qayd etishicha, Amir Temur boshqa hududlardan farqli ravishda Movarounnahrda markaziy viloyatlarni oila a'zolariga topshirmagan va ularni bevosita o'z nazoratida saqlagan. Bu holat markaziy hududlar ustidan nazoratni saqlash hukmdor uchun alohida siyosiy ahamiyatga ega bo'lganini ko'rsatadi.

O'tkazilgan tahlil Temuriylar davlatchiligi bir necha tarixiy boshqaruv an'analari o'zaro uyg'unligi asosida shakllanganini ko'rsatadi. Oliy hokimiyat sulolaviy mansublikka tayangan, ammo uning amaldagi kuchi harbiy amirlarning qo'llab-quvvatlashiga ham bog'liq bo'lgan. Harbiy tuzilma davlat boshqaruvining muhim tayanchi sifatida faoliyat yuritgan. Suyurg'ol tartibi hududlarni boshqarish imkonini bergan, shu bilan birga, hududiy kuchlarning siyosiy mavqeini ham oshirgan. Shu sababli Temuriylar davlatidagi sulolaviy hokimiyat, harbiy boshqaruv va suyurg'ol tizimini bir-biridan ajratilgan holda emas, o'zaro bog'liq siyosiy

munosabatlar sifatida o'rganish maqsadga muvofiqdir. Aynan shu bog'liqlik Temuriylar davlatchiligining XV–XVI asrlardagi o'ziga xos qiyofasini belgilagan.

Xulosa. O'tkazilgan tahlil quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini beradi:

Temuriylar davlatchiligini o'rganish o'rta asrlardagi siyosiy boshqaruvni o'sha davrning tarixiy sharoiti asosida baholash zarurligini ko'rsatadi. Hozirgi davlatlarga xos boshqaruv mezonlarini XV–XVI asrlardagi siyosiy tuzilmalarga to'g'ridan-to'g'ri qo'llash Temuriylar davlatchiligining mazmunini to'liq ochib bermaydi. Shu sababli davlat hokimiyatining amalga oshirilishi, hukmdor bilan harbiy amirlar o'rtasidagi munosabatlar, sulolaviy mansublik, hududiy boshqaruv va suyurg'ol tartibi o'zaro bog'liq holda o'rganilishi lozim.

M. Veber, S.N. Eyzenshtadt, M.G.S. Xodjson va M.E. Subtelni qarashlarini qiyosiy o'rganish Temuriylar davlatchiligini tushuntirishda bir-birini to'ldiruvchi nazariy yondashuvlardan foydalanish mumkinligini ko'rsatdi. M. Veberning davlat hokimiyati haqidagi qarashlari hukmdorning muayyan hududda harbiy kuch ustidan nazorat o'rnatishga intilishini tushuntirishga yordam beradi. S.N. Eyzenshtadt tomonidan ilgari surilgan patrimonial boshqaruv haqidagi qarashlar esa davlat lavozimlari, hududiy mulklar va harbiy vakolatlarning hukmdor shaxsi hamda unga bo'lgan sadoqat bilan bog'liqligini yoritish imkonini beradi. M.G.S. Xodjson islom Sharqidagi davlatlarda harbiy tabaqaning siyosiy mavqeiga e'tibor qaratgan bo'lsa, M.E. Subtelni Temuriylar davlatchiligida ko'chmanchi va o'troq boshqaruv an'alarining o'zaro uyg'unlashganini ko'rsatgan.

Tadqiqot Temuriylar davlatchiligining uchta asosiy tayanchini ajratish imkonini berdi. Birinchisi oliy hokimiyatning sulolaviy tamoyil asosida shakllanishidir. Temuriy hukmdorlarning siyosiy mavqei Amir Temur avlodiga mansublik va Chingiziylar an'anasi bilan qarindoshlik aloqalariga tayangan. Biroq sulolaga mansublik hukmdorning hokimiyatini o'z-o'zidan kafolatlamagan. Hukmdor o'z mavqeini saqlash uchun harbiy amirlar va boshqa siyosiy kuchlarning qo'llab-quvvatlashiga ham tayanishi kerak edi. Shu jihatdan sulolaviy mansublik hokimiyatga bo'lgan huquqni asoslagan, harbiy-siyosiy tayanch esa ushbu huquqning amalda ro'yobga chiqishini ta'minlagan.

Ikkinchi tayanch davlat va jamiyatning harbiy tashkil etilishi bilan bog'liq. Temuriylar davlatida qo'shin tashqi siyosat vositasi bo'lish bilan cheklanmagan. Harbiy tuzilma davlat boshqaruvining muhim bo'g'ini hisoblagan. Amirlar harbiy qismlarga boshchilik qilish bilan birga, viloyatlarni boshqarish, soliq tushumlarini nazorat qilish va o'z tasarrufidagi hududlarda boshqaruv ishlarini yuritishda ham qatnashgan. Shu sababli harbiy va fuqaroviy boshqaruv vazifalari o'rtasidagi chegara qat'iy bo'lmagan. Harbiy amirlarning siyosiy mavqei Temuriylar davlatining ichki barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

Uchinchi tayanch hududlarni suyurg'ol egalari orqali boshqarish tartibidir. Viloyat va hududlarning sulola a'zolari, hukmdorning yaqin kishilari hamda harbiy amirlarga berilishi katta hududlarni boshqarishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. Shu bilan birga, suyurg'ol egalari qo'lida harbiy kuch, soliq tushumlari va mahalliy boshqaruv imkoniyatlarining jamlanishi ularning siyosiy mavqeini oshirgan. Markaziy hokimiyat kuchli bo'lgan davrlarda ushbu tartib davlat boshqaruviga xizmat qilgan. Markaz zaiflashgan paytlarda esa hududiy hokimlarning mustaqillikka intilishi kuchaygan. Shu tariqa suyurg'ol tartibi Temuriylar davlatida markaziy va hududiy hokimiyat o'rtasidagi munosabatlarning muhim omillaridan biriga aylangan.

Tahlil sulolaviy hokimiyat, harbiy boshqaruv va suyurg'ol tartibi bir-biri bilan uzviy bog'langanini ko'rsatdi. Bir shaxsning o'zi amir, qo'shin boshlig'i, hududiy boshqaruvchi va suyurg'ol egasi sifatida faoliyat yuritishi mumkin edi. Shuning uchun mazkur uch yo'nalishni mustaqil boshqaruv shakllari sifatida ajratib o'rganish Temuriylar davlatining ichki tuzilishini to'liq tushuntirib bermaydi. Ular yagona siyosiy boshqaruv tizimining o'zaro bog'langan qismlari sifatida qaralishi maqsadga muvofiq.

Temuriylar davlatchiligini Usmoniylar imperiyasi, Safaviylar davlati va Oltin O'rda bilan qiyoslash uning o'ziga xos tomonlarini yanada aniqroq ko'rsatadi. Temuriylar davlatida markaziy hokimiyat turkiy harbiy va qabila zodagonlarining sadoqatiga sezilarli darajada bog'liq bo'lib qolgan. Usmoniylar davlatida esa vaqt o'tishi bilan urug'-qabila aloqalaridan nisbatan xoli va bevosita sultonga bo'ysunuvchi boshqaruv qatlamini shakllantirishga qaratilgan tartib rivojlangan. Ushbu farq Temuriylar davlatida harbiy amirlarning siyosiy mavqei uzoq vaqt davomida yuqori bo'lib qolganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Temuriylar davlatchiligi ko'chmanchi turkiy-mo'g'ul harbiy-siyosiy an'analari bilan o'troq fors-islom boshqaruv tajribasining o'zaro uyg'unlashuvi asosida shakllangan. Mazkur uyg'unlik davlatning katta hududlarni boshqarishiga, turli siyosiy va ijtimoiy guruhlarini yagona hokimiyat doirasida birlashtirishiga xizmat qilgan. Ayni vaqtda sulola vakillari va harbiy amirlarga keng vakolatlarning berilishi markaziy hokimiyat oldida doimiy muvozanatni saqlash vazifasini yuzaga keltirgan. Shu bois Temuriylar davlatchiligining o'ziga xosligini aynan markaziy hokimiyat, sulolaviy mansublik, harbiy kuch va hududiy boshqaruv o'rtasidagi munosabatlarda ko'rish mumkin.

Kelgusida mazkur masalani Temuriylar davriga oid yozma manbalar asosida yanada chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiq. Xususan, Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari XV asr oxiri XVI asr boshlarida Temuriylar davlatchiligi boshdan kechirgan siyosiy inqiroz, sulola vakillari o'rtasidagi kurash, harbiy amirlarning mavqei va hududiy boshqaruvdagi o'zgarishlarni o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi. Ushbu manba asosida

maqolada ilgari surilgan sulolaviy hokimiyat, harbiy boshqaruv va hududiy boshqaruvga oid qarashlarni tarixiy ma'lumotlar bilan tekshirish keyingi tadqiqotlarning muhim yo'nalishi bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Bobur-noma / M. Salye rus tiliga tarj. – O'zSSR FA nashriyoti, 1958.
2. Bartold V. V. Mo'g'ul bosqini davrida Turkiston. – Nauka, 1963.
3. Bartold V. V. Ulug'bek va uning davri // Asarlar. – Nauka, 1964. – II jild, 2-qism.
4. Manz B. F. The Rise and Rule of Tamerlane [Amir Temurning yuksalishi va hukmronligi]. – Cambridge University Press, 1989.
5. Stroyeva L. V. O'rta Osiyoda Temuriylar davrida davlat va feodal zodagonlar. – Nauka, 1987.
6. Subtelny M. E. Timurids in Transition: Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Iran [O'tish davridagi temuriylar: o'rta asr Eronida turk-fors siyosati va akkulturatziya]. – Brill, 2007.
7. Uljaeva Sh. M. Amir Temur davlat boshqaruvi: tashqi siyosat, diplomatiya. – Akademnashr, 2017.
8. Temur tuzuklari / fors tilidan X. Qoramatov tarj.; B. Ahmedov so'zboshi, izoh va sharhlar muallifi. – G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1999.
9. Hodgson M. G. S. The Venture of Islam [Islomning buyuk boshlanishi]. – University of Chicago Press, 1974. – 2-jild.
10. Eisenstadt S. N. Traditional Patrimonialism and Modern Neopatrimonialism [An'anaviy patrimonializm va zamonaviy neopatrimonializm]. – Sage Publications, 1973.
11. Weber M. Economy and Society [Iqtisodiyot va jamiyat]. – University of California Press, 1978. – 1-jild.